

SO‘ROQ GAPLARNING TAVSIFLANISHI HAQIDA

Hodiyeva Hurriyat Hojiqurbonovna

Buxoro davlat universiteti

o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi magistranti

h.h.hodiyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: maqolada o‘zbek tilida so‘roq gaplar va ularning tavsiflanishi haqida fikr yuritilgan. Bunda so‘roq gaplarning tuzilishi, tarkibi, ularning hosil qilinishidagi asosiy komponentlar tahlilga tortilgan.

Аннотация: в статье рассматриваются вопросительные предложения в узбекском языке и их описание. Анализируются структура, основные компоненты и состав вопросительных предложений.

Annotation: the article deals with the description of interrogative sentences in the Uzbek language. The structure, main components and composition of interrogative sentences are analyzed.

Kalit so‘zlar: gap, gapning ifoda maqsadi, so‘roq gap, so‘roq so‘z, so‘roq olmoshi, so‘roq ohangi.

Ключевые слова: предложение, цель выражения, вопросительное предложение, вопросительное слово, вопросительное местоимение, вопросительный тон.

Keywords: predlozhenie, tsel vyrajeniya, voprositelnoe predlozhenie, voprositelnoe slovo, voprositelnoe mestoimение, voprositelnyy tone.

Gap insonlarning o‘zaro muloqotidagi asosiy birlik sanaladi. Til birliklarning so‘z, so‘z birikmasi, ibora kabi turlari faqat gapgina o‘z mazmun qamrovini ko‘rsatadi. Gapning asosiy maqsadi uch shaklda namoyon bo‘ladi: axborot beriladi (darak gap), ma’lumot so‘raladi (so‘roq gap), da’vat etiladi, undaladi buyuriladi (buyruq gap). Biz ushbu axborotda so‘roq gaplar (SG) va ularning tavsiflanishi haqidagi qarashlarni bayon etamiz.

So‘roq gaplar mavzusi ostida so‘roq gap haqida fikr yuritilar ekan, dastavval so‘roq gapning xususiyatlari ya’ni, so‘roq bilan birga hayrat, taajjub, turli hayajon va tuyg‘ular, buyruq , shubha, gumon, taxmin, darak kabi ma’nolarni ham ifodalashi izohlanib, so‘ngra xulosa beriladi. Manbalarda so‘ro gaplarning mazmuni quyidagicha sharhlangan [G‘ulomov A., Asqarova M. 1987, –B.61]:

Mazmuni	Misol
SG faqat so‘roq mazmuni ifodalanadi	Nega uxlamadingiz?
SGda so‘roq orqali hayratlanish ifodalanadi	<i>Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?</i>
SGda so‘roq orqali hayajon ifodalanadi	<i>Ha, qo‘lga tushdingmi? Ha, nafasing ichingga tushib ketdi-a?</i>
SG orqali buyruq ifodalanadi	<i>Mard bo‘lsang, askaringni to‘plab, man bila urushib ko‘r-chi?</i>
SGda so‘roq orqali shubha, gumon ifodalanadi	<i>Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo‘yayapsiz? Sandiqqa bosyapsizmi?</i>
SG orqali taxmin ifodalanadi	<i>Shunda hayratdan baqirib yubordim: — Iya, Toymisan?</i>
SG orqali darak, hukm anglashiladi	<i>Yig‘lab turgan bolaning begonasi bo‘ladimi?!</i>

Demak, SGLar hayratlanish, hayajon, buyruq, shubha, gumon, taxmin, darak, hukm kabi ma’nolarni ifodalashi mumkin. Shuningdek, so‘roq ohangi yaqqa sezilib turgan, lekin javob talab qilmaydigan so‘roq gap ham mavjud. Bular sirasiga *Men o‘g‘irlik qilayotganim yo‘q-ku, bolam. Mehnatning aybi bormi?*”

(Mehnatning aybi yo‘q), *Yolg‘onchining gapiga ishonib bo‘ladimi?* (Yolg‘onchining gapiga ishonib bo‘lmaydi) tarzidagi jummalarni kiritish mumkin.

Ritorik SGIlarda javob o‘z-o‘zidan anglashiladi. Ular aslida javob talab qiladigan so‘roq gaplardan kelib chiqadi. SGIning yana bir ko‘rinishi so‘roq-darak gap bo‘lib, ular o‘z ichki xarakteri bilan darak gapga to‘g‘ri keladi. Ularda xabar darak gapga nisbatan o‘zgacha shaklda, qat’iy tusda bayon qiladi. Shaklan so‘roq, mazmunan so‘roq bo‘lmagan bunday gaplar emotsionallikni ifodalashga xizmat qilishi bilan ajralib turadi: *Men aytaman... Aytaman-u o‘ylayman: onaning yosh-qarisi bo‘ladimi?* Bu gap “onaning yosh-qarisi yo‘q, yoshidan qat’iy nazar hamma ona ham bir ona” degan mazmuni emotsionallik bilan, kuchli ravishda ifodalaydi. Bunday so‘roq ritorik so‘roq deyiladi. Ritorik so‘roqda javob gapning o‘zidan anglashilib turadi, so‘zlovchining o‘zi javob beradi. Masalan: *Mehrning yosh-qarisi bo‘ladimi? Shafqatning-chi? Sadoqatning-chi?* Ritorik so‘roq gapning kesimi ko‘pincha bo‘lishsiz shaklda bo‘ladi, lekin tasdiqni bildiradi: *Shul gapingizni kecha aytmaydizmi?* Bo‘lishli shaklda qo‘llanganda inkorni bildiradi: *Taqdir, qarigan chog‘ingizda dunyoning g‘amini yeb na qilursiz?*

So‘roq gapning kuzatilgan maqsad bilan bog‘langan grammatik-intonatsion xususiyatlari ham bor. Bunda biz mustaqil qo‘llangan, so‘roq gapligi aniq bilinib turadigan turlarni nazarda tutamiz. Qo‘shma gaplarda to‘ldiruvchi ergash gapning bir turi, so‘roq gap tusida tuzilgan bo‘lishi mumkin, lekin bu ergash gapda so‘roq xususiyati deyarli yo‘qolgan bo‘ladi (bunday hollarda so‘roq belgisi qo‘llanmaydi). Masalan: *Men bilmayman: ular nima haqda so‘zlashayotirlar. — Men ularning nima haqda so‘zlashayotganligini bilmayman.* Umuman, qo‘shma gapning tarkibida qo‘llangan so‘roq gap o‘zining bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi. G‘.Abdurahmonov o‘zining kitobida so‘roq gap quyidagicha ta’riflaydi: so‘roq gaplarda so‘zlovchi uchun noma’lum bo‘lgan biror narsa, harakat-holat haqida ma’lumot olish ko‘zda tutiladi. So‘roq gaplarda suhbatdoshni o‘z fikrini anglatishga yoki ifolalanayotgan fikrga bo‘lgan munosabatini bildirishga chaqiriladi [Abdurahmonov G‘. 1996, -B.12]. Ushbu manbada — so‘roq gap so‘zlovchi uchun noma’lum bo‘lgan faqat biror narsa emas, balki harakat-holat

haqida ham ma'lumot olish uchun xizmat qilishi, shu bilan birga kishilar o'rtasidagi aloqa munosabatni shakllantirishi bayon qilingan. Ammo, so'roq gapning xususiyatlari, ya'ni so'roq bilan birga hayrat, taajjub, turli hayajon, tuyg'ular va boshqa ma'nolarning ham ifodalashnishi haqida fikr bildirilmagan.

A.G'ulomov va M.Asqarovalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis" darsligida so'roq gapning so'roq bildirmaydigan, javob talab qilmaydigan ko'rinishlari borligi, bunday so'roqlar ritorik so'roqni ifodalashi izohlanar ekan, ushbu xususiyatlari jihatidan so'roq gaplar: sof so'roq gaplar, ritorik so'roq gaplar, so'roq-buyruq gaplar kabi uchta yirik gruppalariga bo'lib o'rganiladi. Bu uch guruhdan ritorik so'roq gaplar — yashirin javob, uning aniq mazmuni shu gapning o'zidan bilinib turishi hamda, uning aniq mazmuni yana bir gap keltirish bilan ochilishiga ko'ra tasniflangan.

1. Sof so'roq gaplar (asl so'roq gaplar). Bular javob talab qiladigan so'roqni ifodalaydi. Masalan: *Necha yoshda edilar?* Bunday so'roq gaplar shubha, taajjub kabi ottenkalarga ham ega bo'la oladi. Bunday ottenkani og'zaki nutqda intonatsiya ko'rsatadi.

2. Ritorik so'roq gaplar. Bunday gaplar javob talab qilmaydi. Bunda so'roq yo'li bilan tasdiq mazmuni beriladi (yashirin tasdiq). So'roq gapning bu turi fikrni emotsional tusda, kuchli, ifodali, ta'sirli qilib beradi. Masalan: *Yo sen ham bolamisan?!* ("kap-katta odamsan, yosh bola emasan-ku!"). Yashirin inkor mazmuniga ega bo'lgan so'roq-inkor gaplar ritorik so'roq gapning bir ko'rinishidir: a) yashirin javob, uning aniq mazmuni shu gapning o'zidan bilinib turadi: *Bolani kim sevmaydi?! Yig'lab turgan bolaga rahmi kelmagan odam – odammi?* b) yashirin javob, uning aniq mazmuni yana bir gap keltirish bilan ochiladi: *Menga maqtanishni kim qo'yibdi! "Yuzta kitob o'qigan bilan olim bo'lib qoladimi kishi?"*.

3. So'roq-buyruq gaplar. Bunday gaplar so'roq yo'li bilan buyurish ottenkasini beradi: *Darsga o'z vaqtida kelmaysanmi?* [G'ulomov A., Asqarova M. 1987, –B. 62-63]. G'.Abdurahmonovning "O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis" darsligida so'roq gaplar ikki guruhga: sof so'roq va ritorik so'roq

gaplarga ajratib o'rganilgan. Biroq, so'roq-buyruq gap haqida ma'lumot berilmagan. Ritorik so'roq gaplar haqida keng ma'lumot berilgan. Jumladan, ritorik so'roq gaplar adabiy tilda uslubiy vazifa bajarishi; *aytmaysizmi, bo'ladimi* so'zlari bilan hosil qilinuvchi ritorik so'roq gaplar; ritorik so'roqning muhim, oltita ma'no turi (taajjub, tashvish, g'amxo'rlik, g'azab, gumon va h.) ham izohlab o'tilgan.

So'roq gaplar turli-tuman ma'nolarni, his-tuyg'ularni va so'zlovchining voqelikka bo'lgan turlicha munosabatini ifodalaydi:

1. Sof so'roq: *Qayoqqaa olib ketayotibsiz? Doktorga ko'rsatdingizmi? Yulib tashlash kerakmi, yaxshiroq parvarish qilish kerakmi?*

2. Ritorik so'roq. Bu xil so'roq gaplarning mazmunidan tasdiq, xabar mazmuni anglashilib turadi, shu sababli ritorik so'roq gaplar adabiy tilda his-hayajonni ifodalash uchun uslubiy vosita bo'ladi: *Bo'yraday joyga sholg'om ekan odamga, ham suvmi? Qishda shunday chiroyli ko'ringan bu hovli yozda qanday bo'lsa ekan? Men u boyvachchalarga nima yomonlik qilibman! Odamning hayoti tug'ilishdan boshlanishini kim bilmaydi? Yo'q! Qanday chidayman, bu tuhmatga!*

Ritorik so'roq gaplarning maxsus turini *aytmaysizmi, bo'ladimi* so'zlari bilan kelgan gaplar tashkil egadi: *Meni aytmaydizmi?! Shunaqayam qo'rqib ketdimki. Ertasiga ot og'rib qolsa bo'ladimi! Saharga yaqin Achchiga ketayotgan edim, ro'paramdan yo'lbars chiqib qolsa bo'ladimi!*

Ritorik so'roq gaplarda turli his-hayajon (kinoya, zorlanish, ta'kid, norozilik, achinish, tanbeh, sevinch, kesatish) ifodalanadi. Ritorik so'roqning muhim ma'no turlari: a) taajjub: *Sizda qanday keki bo'lsin! — hayron bo'lib dedi Yo'lchi. U mardikor qanday qilib chaladi? Bu nimasi?!* b) tashvish, g'amxo'rlik: *Nima bo'ldi senga, arslontoyim? Uying kuygur tasqara mirshablar izingga tushdimi?* d) g'azab: *Maqsad nima, maqsad? Uyatni bilasizmi!.. Ja- moamizda ilmga qarshi odamlar bor degani kimning tili boradi!..* e) taajjub-g'azab ma'nosi ifodalanadi: *Meni-ya?* f) gumon: *Menku yaxshi bilmayman. aftidan, har xil shakldagi metall kerak bo'ladiganga o'xshaydi? Nahotki, qizni bu yo'ldan qaytarmasa, hech*

bo'lmaganda, menga, otasi tengi cholga rahmi kelmasa? g) kuchli hayajon:
Tokaygacha ezilamiz, ota?

Ba'zi so'roq gaplarda so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan biror narsa haqida ma'lumot berish talab etilmay, so'zlovchini o'zicha mulohaza qilishi anglashiladi: *Ayb... kimda?.. Ayb nimada? Yoki yer yomonmi? ... Yoki urug' yomonmi? Yo bo'lmasa ob-havodami? Yo yerga solingan o'g'it yomonmi?*

A.G'ulomov va M.Asqarovalar so'roq gapni yuzaga keltiruvchi vositalarning uch turi ko'rsatilgan. Bular: 1) so'roqni bildiradigan elementlar (*-mi, -chi, -a, -ya, -da, -ku*) yordami bilan; 2) so'roq bildiradigan mustaqil so'roq so'zlar (*kim, nima, qaysi, qayerda kabi so'roq olmoshlari*) bilan; 3) ko'rsatilgan vositalar (so'roq elementlari, so'roq olmoshlari) bo'lmaganda, gapning bu turi so'roq intonatsiyasining o'zi bilangina tuziladi.

Shu bilan birga so'roq gaplarda logik urg'uli bo'lak ba'zan ega-kesim tartibining o'zgarishini talab qilishi:— *Bu nima?— Nima bu?* so'roqning turli ottenkalarini ifodalashda so'z tartibining ham o'rni borligi, logik urg'u tartib bilan ham bog'liqligi aytiladi [G'ulomov A., Asqarova M. 1987, –B. 63-65].

G'.Abdurahmonov ham yuqoridagi kabi so'roq gaplarni yuzaga keltiruvchi vositalarning uch turi ko'rsatilgan. Farqli tomoni so'roq yuklamalari orasida *nahotki* so'z yuklamasi, so'roq olmoshlarining guruhlariga bo'lib o'rganilishi hamda so'roq gap kesimi tarkibida *-a* yoki *-dir* qo'shimchalari va *kerak, shekilli, muncha, balki* kabi so'zlarning ham qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlarning keltirilishidir.

1. *-a, -ya, -da, -ku, nahotki* kabi so'roq yuklamalari yordamida tuzilgan so'roq gaplarda so'roq ohangining roli katta bo'ladi; *-mi, -chi* yuklamalarida esa ohang u qadar kuchli bo'lmaydi;

2. So'roq olmoshlari: Shaxs va narsalar haqida fikr yuritilganda *kim, nima* olmoshlari qo'llanadi;

Narsa-buyumlarning belgi-xususiyatlarini aniqlash lozim bo'lgan so'roq gaplarda *qanday, qaysi, qancha, necha, nima* olmoshlari ishtirok etadi;

Harakat-holatning bajarilishi yoki predmetning mavjudlik o‘rni, payti, holati, sababi, maqsadini aniqlash uchun *qayerda, qachon, qanday, qanday qilib, nechuk, nima uchun, nima sababdan, nima maqsadda* kabi olmoshlar xizmat qiladi:

3. So‘roq gaplarni tuzishda xizmat qilgan vositalar (yuklamalar, so‘roq olmoshlari) ayrim so‘roq gaplarda bo‘lmasligi ham mumkin. Bu xil so‘roq gaplar so‘roq ohangi yordamida tuziladi.

Ba‘zan so‘roq gaplarning kesim tarkibida *-a* yoki *-dir* qo‘shimchalari va kerak, shekilli, muncha, balki kabi so‘zlar bo‘ladi. Bu xil gaplarning so‘roq gaplarga aylanishida so‘rash ohangi asosiy o‘rinni egallaydi.

Adabiyotlar:

1. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1987. –В.61-65.

2. Абдурахмонов Ғ. Олий ўқув юртлари учун дарслик. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –В.11-14.